



**ZAMONAVIY KLINIK  
LABORATOR TASHXISI  
DOLZARB MUAMMOLARI**  
**xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman**



**27 dekabr 2022 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqni saqlash vazirligi**  
[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**  
[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

## GEMOLITIK ANEMIYA BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA ERITROSTLARNING MORFOLOGIK O'ZGARISHI

<sup>1</sup>Yusupov B.N., <sup>2</sup>Davlatova G.N., <sup>3</sup>Abdiraimova A.N.

*<sup>1</sup>Toshkent tibbiyot academiyası, <sup>2</sup>Respublika Ixtisoslashtirilgan  
Gematologiya IATM, <sup>3</sup>Toshkent davlat pedagogika universiteti*

Anemiya - qondagi qizil qon tanachalari va gemoglobin sonining kamayishi bilan tavsiflangan klinik va gemitologik sindromdir. Gemoglobinning 120 g/l dan kamayishi anemiya hisoblanadi.

Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti ma'lumotlarida keltirilishicha, butun dunyo aholisining 24,8 % kamqonlikdan aziyat chekadi, bu kasallik ayniqsa mакtabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarda (47,4%) va homilador ayollarda (41,8%) ko'proq uchraydi. Shuningdek homilador bo'lmagan ayollarning ham 30% ushbu kasallik asoratlaridan aziyat chekib kelmoqda (JSST, 2021).

Gemolitik anemiya (Anemia hemolitika) - eritrositlar gemolizining kuchayishi oqibatida qondagi eritrositlar sonining va gemoglobin miqdorining kamayishi, gemolitik sarg'ayish, og'ir kechgan hollarda gemoglobinuriya kuzatilishi bilan tavsiflanadi.

Gemolitik anemiya irsiy va orttirilgan bo'lib, ularning asosiy xususiyati eritrotsitlarning tomir ichi va hujayra ichi og'ir gemolizidir. Eritrotsitlar gemoliziga tashqi omillarning bevosita ta'siri (orttirilgan gemolitik anemiya) yoki eritrotsitlardagi irsiy nuqsonlar (irsiy gemolitik anemiya) natijasida ularning tezda nobud bo'lishi sabab bo'ladi.

Gemolitik anemiyada pereferik qonda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ladi: eritrosit va gemoglobin kamayishi, eritrositlar normoxromiyasi, normositozi, retikulositlar oshishi. Faqat talassemiyada eritrotsitlar gipoxromiyasi, mikrosferositozda giperxromiyasi kuzatiladi va eritrositlar diametri kichrayadi. Tug'ma gemolitik anemiyalarda eritrositlar shakli o'zgaradi: mikrosferositozda kichik 5-6 mkm, giperxrom eritrositlar paydo bo'ladi, ovalositozda ovalsimon eriotsitlar, akantositozda yulduzcha shakldagi eritrositlar, stomatositozda og'iz shakldagi gipoxrom zonali eritrotsitlar bo'ladi. O'roqsimon hujayrali anemiyada normal holatda eritrotsitlar shakli o'zgarmaydi, faqat kuchli gipoksiya holatida gemolitik kriz bo'lib, o'roqsimon eritrotsitlar - dakriotsitlar paydo bo'ladi. Talassemiyada nishonsimon, gipoxrom eritrotsitlar - kodositlar paydo bo'ladi.

Qonni laborator tekshirish natijalarida eritrositlar sonining keskin va gemoglobin miqdorining kamayishi, qon zardobida bog'lanmagan bilirubin, siyidikda urobilin miqdorining ko'payishi va gemoglobinuriya aniqlanadi.

**Xulosa.** Gemolitik anemiya bilan kasallangan bemorlarda umumiyl qon tahlilida eritrotsit va gemoglobin miqdori kamayishi, retukulositlar sonini oshishi, tug'ma gemolitik anemiyalarda eritrositlarni shaklini o'zgarishlari kuzatiladi. Gemolitik anemiya bilan kasallangan bemorlarda ayniqsa qoni tarkibidagi eritrotsitlardagi o'zgarishlarga ahamiyat berish bu kasallikk erta tashxis qo'yish uchun asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

### Adabiyotlar.

1. Бурлакова А.А., Сивакова Л.В. Этиология, патогенез и основные методы лабораторно-инструментальной диагностики токсической гемолитической анемии // Научное обозрение. - 2019. - №5-3. - Б. 34-361.
2. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: ўқув қўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.
3. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxis asoslari: o‘quv – uslubiy qo‘llanma. Toshkent. - “TTA nashriyoti”, 2022. -47 b.
4. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxisiga kirish: o‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Hilol nashr”, 2021. 152 b.
5. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2022. 140 b.
6. Saidov A.B. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent, Toshkent tibbiyot akademiyasi bosmaxonasi, 2021. – 56 b.

### POSTKOVID SINDROMIDA HOMILADORLARDA GEMOGLOBIN VA ERITROTSIT NAZORATI

<sup>1</sup>Zaynudinov A.L., <sup>2</sup>Zaynudinova D.L.

*<sup>1</sup>Buxoro Davlat Tibbiyot Institut, <sup>2</sup>Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

Homilador ayol sog’ligi nafaqat O’zbekiston, balki umumjahon mamlakatlarining tibbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan dolzarb masalalaridanbiri hisoblanadi. Chunki bu nafaqat onada, shu bilan birga bolada ham turli kasalliklar, og’ir asoratlar hamda nogironlik sonining ko’payishiga olib keladi. Dunyo bo’ylab homilador ayollarda 2021-yil Covid -19 dan kasallanish 3500000 va o’limsoni 12300 ni tashkil etdi. Bioinformatikada virus gemoglobin metabolizmiga faol ta’sir etib, undan temirni “yulib oladi” va shu tariqa uning replikatsiyasidan qobiliyatini oshiradi deyilmoqda. Bunday holda, gipoksiya paydo bo’ladi, ya’ni o’pkaning koronavirus bilan shikastlanishi nafaqat juda ko’p virus mavjudligi sababli, balki virus gemoglobindagi “barcha temirni tortib olishi” tufayli ham kelib chiqadi ([worldometer.info](http://worldometer.info)). Olimlar Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda gemoglobin darajasi, eritrotsit miqdori bir necha baravarga kamayganligini aniqladilar.

**Metodlar.** Tadqiqot uchun klinik material 2022-yil davomida Toshkent tibbiyot akademiyasi ko’p tarmoqli klinikasining homilador ayollar patologiyasi bo’limida postkovid sindromi bilan davolangan 26 nafar homilador ayollar kasallik tarixidagi umumiyligini qon tahlili ma’lumotlaridan olindi. Bemorlarning yoshi 19-39 yosh, o’rtacha yosh ko’rsatkichi  $26,59 \pm 1,62$ ni tashkil etdi. Umumiyligini qon tahlilidagi gemoglobin miqdori, eritrotsitlar umumiyligini ma’lumotlari o’rganildi.

**Natijalar.** Homilador ayollar homilaning rivojlanish bosqichiga ko’ra 3 guruhga ajratildi. I guruh ya’ni homiladorlikning 1 – uch oyligi 8 ta bemorda, II guruh ya’ni homiladorlikning 2 – uch oyligi 12 ta bemordava III guruh ya’ni homiladorlikning 3 – uch oyligi 6 ta bemorlarda qayd e’tildi.